



**ISLOMIY SUG'URTA TIZIMINING KECHA VA BUGUNGI HOLATI
XUSUSIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10613998>

Yunusov Jaloliddin Abduraxim og'li

Oriental Universiteti magistranti

Bugungi kunda sug'urta sohasi biznes va moliyaviy ekotizimning ajralmas qismiga aylandi. Sug'urta ishi asosan bankdan tashqari muassasalar tomonidan olib boriladi. Shunga qaramay, ham bank, ham nobank moliya institutlari o'z xizmatlarini ko'rsatishda sug'urta sohasidagi qonunchilik talablari va ko'rsatmalariga mos kelishi kerak. Jismoniy shaxslar, korxonalar va hukumatlar kutilmagan hodisalar, hayot va kapital yo'qotish xavfini boshqarish uchun sug'urta xizmatlaridan tobora ko'proq foydalanmoqdalar.

Islomiy moliyalashtirishning jadal rivojlanishi an'anaviy ravishda olib borilayotgan moliyaviy operatsiyalarning shar'iy talablarga mos keladigan alternativini talab qildi. Shariat prinsiplariga asoslangan ushbu alternativni "Islomiy sug'urta" deb ham atash mumkin. Takoful shariat tamoyillariga muvofiq ishlaydi va shu bilan birga an'anaviy sherigiga teng keladigan imtiyoz va xizmatlarni taklif etadi. Shu sababli, Takoful sug'urta tizimiga ishongan moliya iste'molchilari tobora ko'payib bormoqda va bu ularning e'tiqodlariga mos kelib, jismoniy shaxslar va xalqaro moliya tashkilotlari uchun xavfni qoplashni ta'minlaydi. Keyingi yillarda musulmon mamlakatlarining aksariyat qismida Takoful (Islomiy sug'urta) bozorini rivojlantirish va tizimni takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Ularning aksariyati asosan xorijiy tillar jumladan ingliz, arab va rus tillarida hisoblanadi.

Islom xatar va noaniqlikning o'zini man etmaydi, balki oldi-sotdi shartnomasidan foydalangan holda, sotuv va ayirboshlash xatarini boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlaydi. Aksariyat musulmon fiqhshunoslari an'anaviy sug'urtalash man etilgan (haram) hisoblanadi degan nuqtayi nazarni mahkam tutadilar."²⁴ Bevosita Islomiy bankchilik bilan bog'liq bo'lgan ushbu sug'urta tizimi musulmon diyorlarida an'anaviy sug'urtaga muqobil, Islomiy shariat qoidalariga mutlaqo to'g'ri kelishi bilan, keng ko'lamda o'z bozoriga ega bo'lib bormoqda. Bekkinga ko'ra "Takoful" so'zining o'zi ham islomiy sug'urtalashga birdaniga birikib ketmadi, balki 1980-yillarning birinchi yarmida, 1984-yilda Malayziyada "Takoful to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi birinchi

²⁴ Исломий молия асослари, Хусан Ҳасанов. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2019.



islomiy sug'urta kompaniyasi "Sharikat Takoful Meleyjia Berxad"ning tashkil etilishi natijasida paydo bo'ldi.²⁵ Buxgalteriya hisobi va islomiy moliya institutlarining auditorlik tashkiloti (AAOIFI) Takofulni "Muayyan xatarlar natijasida kelib chiqadigan shikastlanishlarni boshqarish bo'yicha bir guruh shaxslar o'rtasida kelishuv jarayoni"²⁶ deb belgilaydi. Shunga o'xshash, ammo biroz boshqacha shaklda, Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB) Takofulni "Qatnashuvchilarning tavakkalchilik jamg'armasiga belgilangan badal shaklida o'z hissasini berish majburiyati evaziga o'zaro kafolat"²⁷ sifatida belgilaydi.

Ishtirokchilar ko'rsatilgan xavflardan kelib chiqadigan zararlar uchun bir-birlarini birgalikda qo'llab-quvvatlashga o'zaro kelishib oladilar "(IFSB, 2018-yil yanvar). Shuning uchun Takoful, boshqa tillarda qanday talqin qilinishidan qat'iy nazar, shariatga mos keladigan o'zaro ishonchni ta'minlash shartnomaviy tuzilmasi hisoblanadi. Mustafoz Zarqo quyidagicha ta'rif bergan: "Bu, xavflarning bir qismiga duchor bo'lgan kishilarning xavfini sug'urtalash paytida ulardan har qanday ishtirokchiga kompensatsiya to'lanadigan pul miqdorini badallik to'lovi yo'li bilan qoplanishini anglatadi. Bunga misol, oltin bozori savdogarlari uchun, masalan, ularning pullaridan kooperativ jamg'armasini tashkil etish, bunda har biri sug'urta badalidagi o'z ulushini favqulodda yordam fondiga ajratiladi, shu jumladan, xavf, masalan, o'g'irlik yoki yong'in xavfi yuzaga kelganda, abonentlar (a'zolar) ga kompensatsiya to'lanadi." Doktor Vahbi Zuheilining ta'rifi bo'yicha esa Takoful, "Muayyan bir ko'ngilsiz hodisa xavf tug'dirsa, yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni qoplash uchun har bir a'zoning alohida a'zolik badali to'lashida, bir necha kishining kelishuvidir."²⁸ Shayx Faysal Mavlaviyning fikricha, "Bu bir guruh kishilarning har biri tomonidan to'lanadigan alohida badallar orqali moliyalashtiriladigan jamg'armani tashkil etishdir. Bu erda har bir kishi biron bir baxtsiz hodisa yuz bergan taqdirda ushbu fondning ma'lum bir ulushiga ega bo'ladi ". Shayx Muhammad Abu Zahra buni, o'zlarining ulushiga ega bo'lgan va o'zlari orasida vafot etgan kishining oilasiga pul berish yoki to'lash orqali Islom qonunlariga zid bo'lmagan tarzda foydalanadigan kapitalni shakllantirishda guruhning kelishuvi deb belgilaydi.

Moliyaviy majburiyatlari yoki kasal odamlarni davolash, uy-joy qurish yoki baxtsiz hodisalar natijasida nobud bo'lgan tovarlarning narxini to'lash uchun kelishuv asosida jamlangan mablag'lardir.²⁹ Islomiy sug'urtalashning an'anaviy sug'urtalashdan quyidagi muhim tafovutlarini ajratib ko'rsatish mumkin:³⁰

²⁵ Ислон иқтисодий модели ва замон, Беккин Р.И. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2022.

²⁶ The Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI), 2021.

²⁷ The Islamic Financial Services Board (IFSB), 2020, January.

²⁸ "Islamic Jurisprudence and its Proofs", p-4/442, Dr. Wahbi Al-Zuhaili.

²⁹ "Islamic Insurance Between Theory and Practice ar., Abdel Sami' Al-Masri/72

³⁰ Ислоний молия асослари, Хусан Ҳасанов. – Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ, 2019. – 432 б, 79-80-бетлар



1. Takoful ishtirokchilari bir vaqtning o'zida sug'urta qildiruvchi va birlarini o'zaro sug'urtalovchilar hisoblanadi. Sug'urta kompaniyasi ishtirokchilar manfaatini ko'zlab, faqat agent sifatida faoliyat yuritadi va sug'urta jamg'armasining egasi bo'la olmaydi.

2. Jamg'arma ishtirokchilarining investitsion qo'yilmalarga kiritgan mablag'laridan kelgan barcha foyda an'anaviy sug'urtalashda bo'lgani kabi sug'urta kompaniyasining mulki hisoblanmaydi, balki muzorib (sug'urta operatori)ning mukofoti (xizmat haqi) chiqarib tashlangach, ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi.

3. Sug'urta qoplamalari to'lanib bo'lgach, qolgan barcha mablag'lar jamg'arma ishtirokchilari o'rt asida ularning qo'yilmalariga muvofiq yoki boshqa kelishilgan usullarda taqsimlanadi.

4. Takoful faqat sof xatarlardan sug'urtalashni ta'minlaydi. Shu bilan bir vaqtda an'anaviy tijoriy sug'urtalashda islom fiqhida man etilgan chayqovona xatarlardan himoyani ta'minlash ham mumkin. Bugungi kunda, dunyo bo'ylab 1,389 dan ortiq to'la huquqli moliya institutlari va xizmat ko'rsatuvchi darchalar mavjud.

2012-yildan 2022-yilgacha islom moliyasi sanoati o'rtacha yillik 9% o'sish sur'atlarini qayd etdi. Shuningdek, Eron, Saudiya Arabistoni Malayziya va Bahrayn 2022-yilda dunyodagi eng yaxshi islom bank bozorlarining eng muhim ishtirokchilari bo'lib keldi. Shunday qilib, Islom moliya sanoatining jadal o'sishi bilan Takoful bozori yuqori sur'atlarga ega bo'ldi. Islom moliyasi sanoatining boshqa bozorlarida nisbatan takofulning hissasi hali juda oz.³¹ Shuningdek, Saudiya Arabistoni dunyodagi eng katta takoful bozori (global takoful hissasi 48%), undan keyin Eron (34%), Malayziya (7%) va BAA (6%)³². Biroq, iqtisodiy pasayish natijasida, neft narxining pastligi sababli, Saudiya Arabistonida o'sish 2,1% gacha tushib ketdi. Saudiya Arabistonida, kooperativ takoful sanoati, 2005-yilda chiqarilgan kooperativ sug'urta kompaniyalari to'g'risidagi qonun bilan kuchga kiradigan kooperativ modeliga asoslanadi.

Yurtimizda hozirgi kunda takoful sug'urta tizimi bo'yicha deyarli birorta huquqiy hujjatlar mavjud emas. Buning eng birinchi sabablaridan biri sifatida yuqorida ta'kidlanganidek islom moliyasi tizimi hali to'liq kirib kelmaganligini keltirish o'rinli. Ammo shunga qaramay alternativ sifatida, o'zaro (ikki tomonlama) sug'urta bo'yicha bir qancha harakatlar amalga oshirilgan. Bu borada harakatlar davom ettirilmoqda. Ikki tomonlama sug'urta (o'zaro sug'urta) dastlab 1993-yil 6-mayda qabul qilingan "Sug'urta to'g'risida"³³gi O'zbekiston Respublikasi

³¹ Thompson Reuters Report 2018

³² Исламий Молиявий Хизматлар Кенгаши (IFSB) ҳисоботи, 2018.

³³ O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 6.05.1993-yildagi O'RQ-218-son.

Qonunining 11-moddasi tarkibida qisqacha qilib ta'riflangan edi (ushbu qonun bugungi kunda o'z kuchini yo'qotgan): "Ikki tomonlama sug'urta - sug'urta himoyasining shunday shakllaridan biriki, unda sug'urta qildiruvchilar (fuqarolar va yuridik shaxslar) zarur mablag'larni kiritish yo'li bilan ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatlariga birlashadilar. Ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyati o'z a'zolarining mol-mulki hamda boshqa mulkiy manfaatlarini sug'urta qilishni amalga oshiradi va tijoratchi bo'lmagan tashkilot hisoblanadi".

1997-yil 1-martdan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida o'zaro sug'urta to'g'risida alohida 960-modda ajratilib, unda o'zaro sug'urta borasida kengroq tushuncha berilgan. Biroq, 2002-yil 5-aprelda tasdiqlangan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"³⁴gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida o'zaro sug'urta borasida biron-bir norma aks etmadi. Shu bilan 2019-yilgacha o'zaro sug'urta borasida qonunchilikda deyarli yangilik yoki o'zgarish bo'lmadi. Demak, ushbu sug'urta shaklining huquqiy asosi bor, lekin bu sug'urta shakli amaliyotda yaqinroq qilinmay kelgan xolos. 24 yil mobaynida (1993–2017-yillar oralig'ida) o'zaro sug'urta shaklini joriy qilish maqsadida bir nechta davra suhbatlari bo'lib o'tdi, ilmiy izlanishlar qilindi, mutasaddi tashkilot vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi, lekin bularning hammasi "hali amaliyotda yo'q narsa tartibga solinmaydi" qabiligidagi xulosalarga olib kelaverdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli farmoyishi bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi³⁵. Konsepsiyada bir qator islohotlarni amalga oshirish bilan birga "Sug'urta, jumladan o'zaro sug'urtalash institutining rivojlanishi, shuningdek ixtiyoriy badallar investitsiyasidan doimiy daromad olishni nazarda tutuvchi shartsharoitlarni yaratish" belgilangan. Bu nima degani? Bu, O'zbekistonda oldin hech ishlamagan, o'zaro sug'urta institutining huquqiy maqomi yanada mustahkamlanishi hamda dunyoda o'zaro sug'urtaning tutgan o'rni, ya'ni yalpi sug'urta bozorining qariyb 30 foizini 14 (2017-yilda 1,3 trillion AQSH dollari) aynan ushbu sug'urta turiga to'g'ri kelishi va halqimiz o'zaro yordamda misli ko'rinmagan xizmatlari bilan oldindan mashhur bo'lganliklarini inobatga olib, ushbu islohotlar davlatimizda o'zaro sug'urtaning yanada rivojlanishida o'z hissasini qo'shishiga hech qanday shubha yo'q.

O'zaro sug'urtaning aholi va tadbirkorlarga jozibadorligi shundaki, ular bu borada o'z jamiyatlarini tuzib yoki mavjud o'zaro sug'urta jamiyatlariga a'zo bo'lib turli hil talofat va xodisalar oqibatida yetkazilgan zararlarni tegishli pul mablag'larini jamg'arish yo'li bilan qoplashlari va ortgan qismi, an'anaviy sug'urtadan farqli ularoq, jamg'arma a'zolari o'rtasida taqsimlanishi ham mumkin.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 5.05.2002-yildagi O'RQ-358-son.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 05.04.2019-yildagi F-5464-son



Bunda Konsepsiyada belgilangan shartga ko'ra ixtiyoriy badallarni investitsiyaga yo'naltirib undan doimiy daromad olishni nazarda tutuvchi shartsharoitlarni yaratish kerak bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki jamg'arma nizomi, qoidalari, badallar xisob-kitobi va boshqa shartlar faqat a'zolarining manfaatini ko'zlab ishlab chiqiladi, chunki o'zaro sug'urtada aslida sug'urtalovchini o'zi yo'q.

Hamma birbiriga yordam ko'rsatish niyati bilan a'zo bo'ladi, badallar kiritadi va barcha shartlar mana shu prinsip asosida tartibga solinadi. Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki davlat tomonidan Takoful sug'urtasini shakllantirishda fundamental sohalar bo'lgan islom moliyasi va bankchiligi sohalarini moliyalashtirilish darajasi, uning tarkibiy qismlari qayta ko'rib chiqilishi hamda ushbu sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini baholovchi mezonlar ishlab chiqilishi zarur. Shu bilan birga inson kapitalining firma, kompaniyalar darajasida sarmoya kiritish darajasini oshirish uchun qayta o'qitish va qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish uchun davlat dotatsiya, subsidiyalarni ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada, ijobiy ko'rsatkichlarga ega islomiy sug'urta bozorini rivojlantirish va umumiy iqtisodiy o'sishga ulkan hissa qo'shishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 6.05.1993-yildagi O'RQ-218-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 5.05.2002-yildagi O'RQ-358-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 05.04.2019-yildagi F-5464-son.
4. Ислом иқтисодий модели ва замон, Беккин Р.И. – Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ, 2022.
5. Исломий молия асослари, Хусан Ҳасанов. – Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ, 2019. – 432 б, 79-80-бетлар.
6. Исломий Молиявий Хизматлар Кенгаши (IFSB) ҳисоботи, 2018.
7. Islamic Jurisprudence and its Proofs", p-4/442, Dr. Wahbi Al-Zuhaili.
8. "Islamic Insurance Between Theory and Practice ar., Abdel Sami' Al-Masri/ 2020.
9. Thompson Reuters Report 2022.
10. The Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI), 2021.
11. The Islamic Financial Services Board (IFSB), 2020, January.
12. <https://www.lex.uz/>
13. <https://www.prezident.uz/>
14. <https://www.ifsb.org/>



15. <https://www.worldbank.org/>